

“Temurnoma”dagi obrazlar tavsifi va evolyutsiyasi

Ilhom Sayitqulov¹

Abstrakt

Temurnoma”ning jangnomasi tasvirlanayotgan voqelik va qahramonlarning tarixiy asosi mavjud bo’lib, unda bosh qahramon sifatida buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur asos qilib olingan. “Temurnoma”da Amir Temur bilan bog’liq tarixiy haqiqatlar xalq badiiy tafakkuri hosilasi o’laroq Sohibqiron obrazi timsolida xalqona talqin qilingan. Xususan, bu talqinlar Amir Temurning tug’ilishi, ma’lum vaqt otasidan ayro yashashi, yoshligida “sir” ko’rsatib, telbaliklar qilishi, balog’atga yetib qahramonliklar ko’rsatishi, yerning olti tomoni – Shimol, Janub, G’arb, Sharq, osmon va yer osti bilan aloqa bog’lashi, eng muhimi, uning doimiy ravishda pir va eranlar homiyligida bo’lishi tasvirlarida aks etadi.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Temurnoma: Amir Temur Ko’ragon jangnomasi” tanlangan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so’zlar: *doston, xalq kitobi, jang-oda afsonasi, qahramon, san’at badiiyati, uslub, xayoliy shaxs, tarixiy shaxs.*

Kirish

“Temurnoma”da Sohibqiron obrazi bilan parallel ravishda turli tarixiy va to’qima obrazlarga murojaat etilgan. Asarda bir yuz qirq uch nafar obraz ishtirok etgan. Bu obrazlar Amir Temur timsoli atrofida birlashib, Sohibqiron xarakterini yoritishda muhim o’rin tutadi. “Temurnoma”da tasvirlangan ana shunday obrazlarni tarixiylik nuqtai nazardan **tarixiy** va **to’qima** obrazlar tarzida tasnif qilsak maqsadga muvofiq bo’ladi.

¹Sayitqulov Ilhom Abdisalamovich – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: sayitqulovilhom@navoiy-uni.uz; sayitqulov86@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-1475-5757

Iqtibos uchun: Sayitqulov, I. A. 2023. “Temurnoma”dagi obrazlar tavsifi va evolyutsiyasi”. *O’zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 2(2): 98-116.

1. Tarixiy obrazlar ham, o‘z navbatida, ikki guruhga ajraladi:

1.1. Amir Temur zamondoshlari obrazi: bularga Turag‘ay (Tarag‘ay) Bahodir, Tegin begim, Jahongir Mirzo, Mirzo Umar to‘ra, Umarshayx Mirzo, Sulton Muhammad to‘ra, Mironshoh Mirzo, Bayonqulixon, Sadr ash shariat, Amir Qazag‘on, Amir Choku, Yeldirim Sulton Boyazid, Shoh shujo‘, Malik Ra‘no Ballulloh, Mavlono Burhoniddin Sohib Hidoya, Mirzo Sayfiddin, Amir Muayyad orlot, Amir Boyazid Jaloyir, Amir Muso Bahodur, Xoja Kamol Xo‘jandiy, Shayx Shams kulol, Amir Bayon Sulduz, Saroy Mulk xonim, Husayn so‘fi, Kamol oy (O‘ljoy Turkon), Amir Hojibek, Qimoriy Inoq, To‘xtamishxon, Hind Xoja, Qamariddin, Shoh Mansur, Jayon Chashm, Uchqora, Tog‘aybug‘a, Amir Muso Jaloyir, Amir O‘ljoy, Abbos Bahodur, Amir Husayn, Tuman og‘a, Mavlono Sa‘diddin, Muhammad Porso, Malluxon, Feruzshoh, Amir Shoh Yahyo, Sangu bobo, Bahodurxon, Hasan Juvoriy, Muhammad Porso, Amir Mu‘id, Sulton Ahmad, Shayx Ozariy, Sulton Shabli, Ulug‘bek Mirzo, Mirzo Xalil to‘ra, Xoja Baho ul Haq vad din (Bahovuddin) obrazlarini misol qilsak bo‘ladi. Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslarning Amir Temur bilan bir davrda yashaganligi tarixdan ma‘lum. Lekin tarixiy va badiiy haqiqat nuqtai nazaridan asardagi bu obrazlarni tarixiy shaxslarning prototipi deb ham bo‘lmaydi.

Amir Temur zamondoshlari bo‘lgan obrazlarini ham, o‘z navbatida, tarixda Sohibqiron bilan muloqotda bo‘lgan yoki bo‘lmagan shaxslarga ko‘ra ikki guruhga ajratilsa, tasnif mukammalroq bo‘ladi. Xususan:

1.2. Amir Temur bilan bevosita yoxud bilvosita muloqotda bo‘lgan tarixiy shaxslar obrazi. Asarda Amir Temurga yaqin hamroh sifatida tasvirlangan obrazlarni (ota-onasi, xotinlari, farzandlari, sarkarda va pirlarini) bu guruhga kiritish mumkin. Mazkur tipdagi obrazlarning aksari folkloriy talqin qilingan. Bunga asardagi Amir Temurning otasi Muhammad Tarag‘ay obrazi tasvirida ham guvoh bo‘lishimiz mumkin.

“Temurnoma”da Tarag‘ay Bahodir ismi “Turag‘ay bahodir” tarzida nomlangan bo‘lib, asarning *“Avvalg‘i doston. Hazrat Amir Temur Sohibqironni onalaridin tug‘ulmoqliqlari bayoni”* bob (doston) ida uning nasl-nasabi va ismi: *“Turag‘ay bahodur nasli Qorachor No‘yondin erdi. Kunlardan bir kun No‘yon xonadonidin chiqib ketib erdi. Ammo davlati zo‘r erdi. Odamlar ani izzat qilur erdilar. Shahrisabzki, xolo ul mavzi‘yani to‘rag‘aiyya derlar”* [Temurnoma, 1, 43] tarzida izohlanadi. Shuningdek, mazkur bobda Tarag‘ay Bahodir eranlar tomonidan Sohibqiron otasi sifatida tanlangan

shaxs ekanligi ta'kidlanadi. Uning dunyoga kelajak Sohibqironning onasi – Tegini begimga yetishish uchun Buxoroga borishi kerakligi tush motivi orqali tasvir topgan. Tarag'ay Bahodirga cho'pon ko'rgan tushi vositasida xabar beriladi. Buxoroga borganida Sohibqiron homiysi Shayx ul a'lam (Shayx Sayfiddin) kutib oladi va bo'lajak Sohibqironning onasiga yetishishi uchun ko'maklashadi. Bu tasvirlarda tarixiylik prinsiplari buzilganligini ko'rishimiz mumkin. Unda folkloriy talqinga xos bo'lgan qahramon jismi va ruhining eranlar tomonidan muqaddas suv (sut) bilan poklanishi, qahramonning yorga yetishish yo'lidagi turli shartlarni bajarishi, sinovlarda dushmanlardan (Amir Qazag'an ham Tegini mohga talabgor bo'lganida Tarag'ay Bahodir u bilan jang qilishi – I.S.) ustun kelib, yorini o'z yurtiga olib ketishi va bu jarayonda homiylar ko'magi kabi elementlar yirik planda tasvirlanadi. Qahramonning insatsiya jarayonini ham o'z ichiga olgan ushbu motivlar tasviri aynan folklor an'analari bog'liq. Tegini begim homilasi olti oylik bo'lganida Tarag'ay Bahodir Bayonqulixon chorlovi bilan qo'shin to'plab, jangga ketadi. Tegini begimni katta xotini Yo'qun xonimga omonat qoldiradi. Shu sababli kundoshlik vajidan tug'ilajak qahramonning otasidan ma'lum vaqtgacha ayro yashashi va Amir Temur o'n ikki yoshiga kirganida ota bolaning topishishi ham epik tafakkur mahsuli sifatida talqin etilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Tarag'ay Bahodir obrazi "Temurnoma"ning *"Emdi so'zni Turag'ay bahodirdan eshitmak kerak"* [Temurnoma, 1,47-49] faslida Amir Temur o'n ikki yoshga to'lganida Tarag'ay Bahodirning uni topishi voqealari, *"Bu dostonda Amir Sohibqironning Burhoniddin sohib hidoyatg'a kelmoqi, ul kishini munoqashalarini bayoni"* [Temurnoma, 1, 66-72] bobida esa uning Amir Temurning g'oyaviy raqibi Nosir Xisrav bilan bo'lgan jangida Sohibqironga ko'makchi bo'lgani, *"Bu dostonda Amir Sohibqironni Buxoro bormoqi Bayonqulixonni Saroymulk otliq qizini olmoqini bayoni"* [Temurnoma, 1, 72-76] bobida Tarag'ay Bahodirning qattiqqo'l ota sifatidagi qiyofasi, *"Bu dostonda Baroqxon taxt uzra o'lturg'oni, qoidai podshohliq xirmanin kuydirg'oni bayoni"* [Temurnoma, 1, 79-82] bobida Tarag'ay Bahodirning o'z farzandini mushkul vaziyatdan qutqarish uchun qilgan harakatlari orqali uning ota sifatidagi siymosi, *"Bu dostonda Do'nboy bahodur Amir Temur qo'lida o'lg'oni. Ani singlisi axtorib kelg'onini bayoni"* [Temurnoma, 1, 82-86] bobida Amir Temur bilan Saroy Mulk xonim to'yini qilish uchun Tarag'ay Bahodir Buxoroga sovg'a-salomlar bilan kelishi va to'y tafsilotlari

berilib, Baroqxonning taxtni vaqtincha boshqarish uchun Tarag‘ay Bahodirga berishi bilan uning hukmronlik salohiyati, *“Bu dostonda Sayyid ota sharofatidin qalmoqlar musulmon bo‘lg‘oni, Amir Turag‘ay bahodur Dashti Qipchoqqa borib, olam foniydin intiqol qilg‘onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 86-96] bobida Tarag‘ay Bahodirning ham kamchiliklardan holi bo‘lmagan oddiy inson sifatida ma‘lum sabablar tufayli Sayyid otaning ko‘ziga olmos qo‘ydirishi va Sayyid ota qarg‘ishi tufayli bir kechada muxrak kasaliga uchrab halok bo‘lganligi tasvirlanadi. Tarixiy manbalarda Amir Tarag‘ay (Tarag‘aybek) – Amir Temur Ko‘ragonning otasi bo‘lib, Chig‘atoy ulusining nufuzli beklaridan, barlos urug‘i oqsoqollaridan bo‘lganligi, uning ajdodlari (Burkul-llangir-Iyjil-Qarochor) Chingizxon va Chig‘atoy saroyiga yaqin bo‘lishgani, turli harbiy qismlarga sarkardalik qilib, Kesh viloyatini boshqarganligi ta‘kidlanadi. Tarag‘aybek Chig‘atoy ulusi xonlari tomonidan Ili daryosi bo‘yida har yili chaqiriladigan qurultoyda boshqa viloyatlar boshliqlari qatori ishtirok etsa-da, harbiy ishga unchalik mayli bo‘lmaganligi bois butun e‘tiborini musulmonchilikni mustahkamlash va takomillashtirishga qaratgan, doim ulamo-yu fuzalo, darveshu qalandarlar va solihlar suhbatida bo‘lganligi aytiladi. Shuningdek, Shamsuddin Kulolni o‘ziga pir tutgan Tarag‘aybek Buxoro fuzalolari rahnamosi – sadr ush-shar‘ianing qizi Tegin (Takina)ga uylangan. 1360-1361-yilda dunyodan ko‘z yumgach, Tarag‘aybekni otasi va tug‘ishganlari yoniga dafn etishgani ta‘kidlab o‘tiladi [Dadaboyev, 2, 25].

Yuqoridagi tafsilotlardan ma‘lum bo‘ladiki, “Temurnoma” Amir Temur haqidagi asar bo‘lganligi bois unda Tarag‘ay Bahodir obrazining Sohibqiron otasi sifatidagi xususiyatlari talqin qilingan. Shuningdek, asarda tarixiy haqiqatdan chekingan holda Tarag‘ay Bahodirning fojiali o‘lim topishi tasviriga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Negaki, ulamo-yu fuzalolar suhbatini harbiy ishlaridan ustun qo‘ygan Tarag‘ay Bahodir tarixda bu shaxs bilan uchrashmagan bo‘lsa-da, asarda Sayyid ota ko‘ziga olmos quydirishi asarning to‘laqonli xalq og‘zaki ijodi hosilasi ekanligini ko‘rsatadi.

“Temurnoma”da Amir Temur bilan muloqotda bo‘lgan tarixiy shaxs obrazlaridan yana biri Saroy Mulk xonimdir. Tarixiy manbalarda Saroy Mulk xonimning 1341-yilda Chig‘atoy ulusi hukmdori Qazonxon oilasida dunyoga kelgani, besh yoshida otasi taxtdan tushirilib, qatl qilingani ta‘kidlanadi. Shuningdek, 1355-yilda balog‘atga yetgan Saroy Mulk xonimni amir Husayn nikohiga oladi. 1370-yili amir Husayn Balxda qatl etilgach, Amir Temur uning haramidagi xotinlari, chunonchi, Saroy Mulk xonim, Bayon sulduzning

qizi Ulus og‘o, Xizr Yasavuriyning qizi Islom og‘o hamda Tag‘oy Turkon Xotunni idda muddati o‘tgach, o‘z nikohiga olganligi ma‘lum. Amir Temur Saroy Mulk xonimga uylangach, “Ko‘ragon” (kuyov) unvoniga musharraf bo‘lganligi ham qator tarixiy manbalarda qayd etiladi [Dadaboyev 2, 153].

“Temurnoma”da esa Saroy Mulk xonim obrazi tarixiy faktlardan ko‘ra, xalq tasavvuridagi malika sifatida badiiy talqin qilinadi. Xususan, bu voqelik asarning *“Bu dostonda Amir Sohibqironni Buxoro bormoqi Bayonqulixonni Saroymulk otliq qizini olmoqini bayoni”* [Temurnoma, 1, 76-79] bob (doston)ining *“Emdi so‘zni Bayonqulixon podshodineshitmakkerak”* faslida bayon etilgan. Jumladan, Bayonqulixon tushida Shayx ul a‘lamni ko‘radi. Shayx unga “qizlaringni erga ber”, deya buyuradi. Xonning to‘qqizta qizlaridan eng kichigi Saroy Mulk xonim bo‘ladi. Undan boshqa sakkizta qizini erga beradi, ammo Saroy Mulk xonim erga tegishni xohlamaydi. Lekin Amir Temurga ishq tushib, otasidan unga erga berishini so‘raydi. Xon turli sabablarga ko‘ra Tarag‘ay Bahodirdan ranjigani bois bu nikohga qarshilik qiladi. “Kuntug‘mish” dostonidagi Xolbekanining shartiga monand Saroy Mulk xonim ham “meni kim shatranjda yutsa, o‘shanga tegaman”, deb shart qo‘yadi. Xonning qarshiligiga qaramasdan Saroy Mulk xonim g‘ulom qiyofasida kuyovlikka nomzodlar bilan shatranj o‘ynaydi. Amir Temur o‘zini tanitmasdan malikaga talabgor bo‘lib keladi va shatranj o‘ynovchi “g‘ulom”ning qiz ekanligini bilib, xon bilan “agar men yutsam, shu qulingizni menga berasiz”, deya shartlashadi. Xon ham rozi bo‘ladi. Amir Temur “g‘ulom”ni yutsa ham, xon sep vajidan unga qizini bermaydi. Amir Temur tuhmat bilan zindonga tashlanadi. Xalq dostonlari va ertaklaridagi kabi zindondan qahramonni malika qutqaradi. Ikkisi birga aysh-ishrat suradi. Saroy Mulk xonimning akasi Baroqxon bundan xabar topib, oriyat uchun singlisini cho‘lga olib chiqib, o‘ldirib yuborishni buyuradi. Amir Temurni yetmish yeridan jarohatlaydi va o‘ldi deb gumon qilib, bir chetga tashlab ketadi. Bu o‘rinda Saroy Mulk xonimning mardligi, Amir Temurga muhabbati tarannum etilgan.

Asar davomida Saroy Mulk xonim obrazi bilan bog‘liq voqealar jangnomaning *“Bu dostonda Baroqxon taxt uzra o‘lturg‘oni, qoidai podshohliq xirmanin kuydirg‘oni bayoni* [Temurnoma, 1, 79-82], *“Bu dostonda qimoriy Inoq Amir Temur Sohibqirong‘a yo‘ldosh bo‘lg‘oni. Amir Naqshband pirim xizmatlarig‘a borg‘onini bayoni. Ammo ahvoli Sohibqiron Iskandari Soniy nechand kun mashaqqat*

zindonida bo’lub, andin kam-kam farog’at misri uzra sulton bo’lg’oni” [Temurnoma, 1, 100-108] bob (doston)larida tasvirlangan. Xususan, asarda Oqtemurxonning Saroy Mulk xonimni saroyiga olib ketishi, Amir Temurning uni qutqarishda jasorat ko’rsatish voqealari asnosida Sohibqironning mardligi, oriyati, g’ururi va jasurligiga urg’u beriladi. Shuningdek, asarda yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, Saroy Mulk xonimning tarixdagi kabi Amir Husaynning bevasi emas, Bayonqulixonning kenja qizi – malika sifatida tasvirlanishi xalqning Sohibqironga bo’lgan munosabatini anglatadi, ya’ni xalq o’z qahramoniga bevani emas, malikani munosib ko’radi. Shuning uchun Amir Temurning “Ko’ragon” unvoni ham asarda tilga olinmaydi. Demak, asardagi tarixiy obrazlar xalqning qahramonga bo’lgan munosabati nuqtai nazardan ideallashtiriladi va qahramon xarakter xususiyatining ma’lum jihatlarini yoritishga yo’naltiriladi.

“Temurnoma”da Amir Temurga yaqin hamroh sifatida tasvirlangan obrazlardan yana biri Qimoriy Inoq bo’lib, u Amir Temur bilan Oqtemur Saroy Mulk xonimni olib ketgan paytda tanishadi va umrining oxirigacha Sohibqironning eng yaqin mulozimi sifatida talqin qilinadi. Bu obrazning Sohibqironga e’timodi asarda quyidagicha paydo bo’lganligi ta’kidlanadi: Amir Temur jarohatlanib, So’fining uyida davolanadi. Oradan ancha vaqt o’tgach, So’fi va uning o’g’li Inoq kal bilan birga qovun polizi o’tini yulish uchun chiqadi. Peshin mahal Amir Temur boshiga kesaklardan yostiq qilib uxlab yotganida, bir qush uning boshiga tovusdek soya solib turganini ko’radi. Inoq otasiga buni ko’rsatadi va ikkalasi Sohibqiron iqboli balandligiga amin bo’lib, o’lguncha unga xizmat qilishini ko’ngliga tugadi [Temurnoma, 1, 101-102]. Qimoriy Inoq obrazi “Temurnoma”ning *“Bu dostonda qimoriy Inoq Amir Temur Sohibqirong’a yo’ldosh bo’lg’oni. Amir Naqshband pirim xizmatlarig’a borg’onini bayoni. Ammo ahvoli Sohibqiron Iskandari Soniy nechand kun mashaqqat zindonida bo’lub, andin kam-kam farog’at misri uzra sulton bo’lg’oni”* [Temurnoma, 1, 100-108] bob (doston)idan boshlab, asar oxirigacha Amir Temur obrazi bilan parallel ravishda tasvirlanadi. Muallif asarda Qimoriy Inoq mayitining Amir Temur qabri poyiga qo’yilganligini ham alohida ta’kidlab o’tadi [Temurnoma, 1, 101].

Tarixiy solnomalarda Qimoriy inoq haqida Temurbekning do’sti, maslakdoshi, safdoshi, sarkardasi sifatida 1370-yilda cherik begi unvoniga sazovor bo’lganligi, shuningdek, Ozarbayjon yurishida (1386) qatnashganligi, Xalxol viloyati hokimi Mahmud Xalxoliy

Mozandaron hukmdori Valibekni tutib Qimoriyga topshirganligi va Qimoriy Valibekning boshini tanidan judo qilib, Sohibqironga yuborganligi haqida ma'lumotlar uchraydi [Dadaboyev, 2, 257-258]. "Temurnoma"da Qimoriy inoq Amir Temurni bir necha bor mushkul vaziyatlarda qutqargan, hayotini saqlab qolgan sadoqatli safdosh sifatida talqin qilinadi. Xususan, asarning *"Bu dostonda Amir Temur Sohibqiron qaysarkim Yeldirim sulton Boyazid bila jang qilg'onini bayoni"* bob(doston)ining *"Emdi so'zni Sohibqiron din eshitmak kerak"* va *"Emdi so'zni Amir Sohibqironni voqeasidan eshitmak kerak"* [Temurnoma, 1, 313-321] fasllarida Qimoriy Inoq obrazi tasviri birinchi planga chiqadi. Jumladan, asarda Amir Temur kechqurun Halaj dengizi sohilida sayr qilib yurganda, oti hurkib suvga tushib ketadi. Amir Temurning yo'qligidan qo'shin sarosimaga tushadi. Inoqqa Amir Temur sog'-salomat ekanligini Naqshband ayon qiladi va qo'shinga "Amir Temur chillaga kirdilar", deb gap tarqatishadi. Mana shu o'rinda butun boshli Amir Temur qo'shini, yaqinlari, sarkardalari orasidan Naqshbandning Amir Temur sog'-salomat ekanligini Inoqqa yetkazishi ham bu obrazning ahamiyatini ko'rsatadi. Amir Temur daryodan chiqib, horib yotganda Qaysarning uch nafar askari uni topib oladi va bog'lab, Qaysar oldiga olib ketadi. Qaysar asirning Amir Temur ekanligini bilmaydi va undan gap olish maqsadida ho'kizning terisiga solib qiynaydi. Inoqtoz bu voqealardan xabardor bo'lib, yordamga kelmoqchi bo'lganda, Muhammad to'ra yubormaydi. Inoqni lavozimidan chetlatadi. Inoq o'g'liga o'zini armanlarga qul sifatida sotishni buyuradi va armanlarning xizmatini qilib, ularning hurmatini qozonadi. Armanlar va turklar o'rtasiga nifoq solib, talato'pda Amir Temurni qutqaradi. Bu voqelikda Amir Temur sabrli, bo'sh-bayov qilib tasvirlangan bo'lib, "Alpomish" dostonidagi Qorajonning alpga ko'makchi vazifasini bajargani kabi, Inoq ham Sohibqironga ko'makchi obraz sifatida gavdalantiriladi. Bu holat Amir Temur Buxoroda asirga tushib qolganida ham Inoq yetmish kishining boshini kesib uni qutqarishida namoyon bo'lgan [Temurnoma, 1, 104]. Demak, asarda Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan obrazlar talqini tarixiy haqiqatga mos kelmasligini kuzatamiz. Bu esa "Temurnoma"ni xalq tasavvuridagi Sohibqiron timsoli talqiniga bag'ishlangan asar sifatida baholashga, yondosh tarixiy obrazlarning ham epik talqin olganligiga asos bo'ladi.

1.3. Amir Temur bilan zamondosh bo'lsa-da, o'zaro aloqada bo'lmagan, lekin asarda hamkor sifatida tasvirlangan obrazlar. "Temurnoma"da Amir Temur bilan zamondosh bo'lsa-da, lekin u bilan hayotda uchrashmagan ayrim tarixiy shaxslar obrazi

ham mavjud. Xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan, xalq e'tiqodi va millat ertasi uchun kurashgan bunday tarixiy shaxslar obrazining tasvirlanishini etnosning o'z idealidagi Sohobqirona o'ziga yaqin bo'lgan shaxslarni hamroh qilganligi bilan asoslash mumkin.

“Temurnoma”da pirlar obrazi talqiniga keng o'rin ajratilgan bo'lib, Sohobqiron tug'ilgunicha va hayotlik davrida pirlar homiy-ligida bo'lganligi tasvirlangan. Xususan, Amir Temur tug'ilgunicha uning otasi va onasiga Shayx ul a'lam pirlilik vazifasini bajaradi. Shuningdek, Sohobqiron olti oylik paytida uni jisman yo'q qilishga uringan dushmanlardan ham aynan Shayx ul a'lam himoya qiladi. Amir Temur balog'atga yetgach, to umrining oxirigacha esa Xoja Baho ul Haq vad din (Bahovuddin) homiy sifatida tasvirlanadi. Tarixda Bahouddin Naqshband, Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshbandal-Buxoriy (ko'proq Bahouddin yoki Xo'ja Bahouddin, Balogardon, Xo'jai Buzrug, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur, 1318–1389-yillarda yashagan) – mashhur valiy, naqshbandiya tariqatining asoschisi hisoblanadi. “Temurnoma”da Bahouddin Naqshband Amir Temurning asosiy piri sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, tarixiy manbalarda bu ikki shaxsning uchrashganligi to'g'risida ma'lumot yo'q. Shuningdek, Amir Temur balog'atga yetganda (1448 yillarda) Xo'ja Bahouddin Naqshband endigina 30 yoshni qarshilagan, uning tariqati xalq orasida ommalashmagan edi. “Temurnoma”da Amir Temur va Xo'ja Bahouddin Naqshbandning o'zaro munosabatlari bayoni tasviriga katta o'rin ajratilganligi, uning Sohobqirona asosiy pir sifatida tasvirlanishi keyingi davrlarda xalq tasavvuri va e'tiqodida naqshbandiya tariqatining nechog'lik ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Asardagi Amir Temur obrazi xalqning epik tafakkuri mahsuli sifatida qaralar ekan, Bahouddin Naqshband obrazini ham pirlarning umumlashma tipik vakili sifatida talqin qilsak to'g'ri bo'ladi. “Temurnoma”ning *“Bu dostonda Sayyid ota sharofatidin qalmoqlar musulmon bo'lg'oni, Amir Turag'ay bahodur Dashti Qipchoqqa borib, olam foniydin intiqol qilg'onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 86-96], *“Bu dostonda qimoriy Inoq Amir Temur Sohobqirona yo'ldosh bo'lg'oni. Amir Naqshband pirim xizmatlarig'a borg'onini bayoni. Ammo ahvoli Sohobqiron Iskandari Soniy nechand kun mashaqqat zindonida bo'lub, andin kam-kam farog'at misri uzra sulton bo'lg'oni”* [Temurnoma, 1, 100-108], *“Bu dostonda Amir Temur Sohobqiron To'qtemurxon bilan muloqot bo'lg'onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 108-111], *“Bu dostonda Amir Sohobqiron Balx va Qandahor sarig'a borg'oni, Baroqxonni axtorib yurg'onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 111-113], *“Bu dostonda Mirzo Shohruh to'ra ibn Amir*

Temur Dashti Qipchoqg'a borib, To'xtamishxonni orqasidin quvlab, To'xtamishxonni qatl qilg'onini bayoni" [1,221-228], *"Bu dostonda Amir Temur Sohibqiron qaysarkim Yeldirim sulton Boyazid bila jang qilg'onini bayoni*" [Temurnoma, 1, 313-321] bob (doston)larida Naqshband obraziga bog'liq tasvirlar uchraydi. Ularda Naqshband obrazi homiy eran timsolida tasvirlangan bo'lib, qahramon qiyin vaziyatga tushib qolganida uning chorlovi bilan g'oyibona paydo bo'ladi va Sohibqironni qutqaradi. Xususan, "Temurnoma"da Sohibqironning Qandahor hokimi shoh Mansur bilan jangi so'ngidagi voqealar tasviri bunga misol bo'ladi: *"Shoh Mansur lashkari ichida turib erdi, bir tog' tarafdin soyga sel kela berdi. Tog'ni bir lo'ndasi yiqilub, askar uzra tushti. Amir Temurg'a zarar qilmadi, yo pirim Naqshband, deb bir chekkasidin chiqti. G'oyibdin bir qo'l hozir bo'lub, Amirni tog'ni yuqorisig'a chiqorib qo'ydi"* [Temurnoma, 1, 127]. Asarning yana bir o'rnida Amir Temur va uning ikki hamrohi jatta eliga josuslik uchun ketayotgan paytida yo'lda to'xtab, dam olishadi. Mana shu payt ular uxlayotganda yigirma nafar qipchoq qorovullari ularni ushlab, qo'llarini bog'lashadi va bir qortga beradi. Amir Temurning bir hamrohida la'l bo'lib, uni yutib yuboradi. Qort Amir Temurning hamrohini o'ldirib, qornidan la'lni olib, *"La'lni suvga yuvub, andin so'ng Amirni o'ldurmoqg'a keldi. Sohibqiron yo hazrat Bahovuddin, deb bir zo'r urdi, arqon uzulub, bo'lak-bo'lak bo'ldi"* [Temurnoma, 1, 131]. Shundan so'ng Sohibqiron piridan kuch olib, qortni o'ldiradi va asirlikdan qutiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillar shuni anglatadiki, tarixda Amir Temur va Bahouddin Naqshband uchrashmagan bo'lsa-da, "Temurnoma" asari kitobat qilinguniga qadar Amir Temur haqida keng tarqalgan afsona va rivoyatlar og'izdan og'izga o'tib yurgan bir davrda xalq orasida naqshbandiya tariqati keng tarqalgan edi. Shu sababli "Temurnoma"da Bahouddin Naqshband obrazi tipiklashtirilgan homiy sifatida talqin qilinadi.

1.4. Amir Temurga zamondosh bo'lmagan, ammo tarixda yashab o'tgan tarixiy shaxslar obrazlari. "Temurnoma"da bu tipdagi ko'plab obrazlar uchraydi. Ularning umumiy xususiyati Amir Temur yashagan davrdan yo oldin, yoxud keyin yashab o'tgan mashhur tarixiy shaxslar (chunki asarda bu tarixiy shaxslar obrazi faqatgina nomlari bilangina o'xshash – I.S.) ekanligida. Chunonchi, asarda Shayx ul a'lam (Shayx Sayfiddin), Dilshod Xotun, Baroqxon, Sayyid ota (Sayyid Ahmad), To'qtemurxon, Sanjarbek, G'iyosiddin, Qilich Arslon, Sulton Valad, Hakim Nizoriy, Malham porado'z, Nosir Xisrav obrazlarini mazkur guruhga kiritishimiz mumkin.

Xususan, “Temurnoma”da bu guruhga mansub Baroqxon obrazi tasviriga keng o‘rin ajratilgan bo‘lib, asarda u Bayonqulixonning yolg‘iz o‘g‘li, Saroy Mulk xonimning akasi sifatida tasvirlanadi. Lekin Shayboniylar sulolasidan bo‘lgan Baroqxon tarixda Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchxojaning kichik o‘g‘libo‘lib, otasivafotidanso‘ngToshkenthokimi (1525-1551) so‘ngra Movarounnahr xoni (1551-1556) bo‘lganligi, yoshligida Vosifiydan she‘riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta‘lim olganligi ma‘lum [4]. “Temurnoma”ning *“Bu dostonda Baroqxon taxt uzra o‘lturg‘oni, qoidai podshohliq xirmanin kuydirg‘oni bayoni”* [Temurnoma, 1, 79-82], *“Bu dostonda Do‘nboy bahodur Amir Temur qo‘lida o‘lg‘oni. Ani singlisi axtorib kelg‘onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 82-86], *“Bu dostonda qipchoq sipohi Movarounnahr shaharlarini olg‘oni, Amir Temur Sohibqiron necha kunlar mashaqqat tortg‘onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 96-100] bob (doston)larida bevosita Baroqxon obrazi bilan bog‘liq tasvirlar beriladi. Bu boblarda Baroqxon singlisi Saroy Mulk xonim va Amir Temur munosabatlariga keskin qarshi bo‘lishi, uning Amir Temurni o‘ldirishga ahd qilgani, Tarag‘ay Bahodir zug‘umi bilan Amir Temurni topib, Saroy Mulk xonim bilan Sohibqiron to‘yini qilishi, Movarounnahr To‘qtemurxonning bostirib kelayotganligini eshitgach esa taxtni tashlab qochib ketganligi bayon qilinadi. Bu tasvirlar zahirida Baroqxon obrazining tarixiy prototipi Amir Husayn ekanligi anglashiladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, asarda tasvirlangan Saroy Mulk xonim obrazining tarixdagi prototipi O‘ljoy Turkon xonimdir. Chunki ma‘lum sabablar bilan Baroqxon tomonidan Amir Temur xalqiga soliq solinganida ommaning ahvoli og‘irligidan Sohibqiron o‘z mablag‘lari, yetmaganiga Saroy Mulk xonimning tilla taqinchoqlarini ham boj sifatida bergani ta‘kidlanadi. Tarixda ham Amir Husayn xalqning iqtisodiy nochor ahvoliga qaramasdan boj talab qilganida Sohibqiron o‘z mol mulki va O‘ljoy Turkon xotunning taqinchoqlarini xalq nomidan boj tariqasida Amir Husaynga berganligi ma‘lum. Shuningdek, asarda Baroqxon yurtga yov bostirib kelayotganda taxtni tashlab qochib ketganida, Amir Temur yovga yolg‘iz o‘zi qarshi chiqadi. Tarixda bo‘lib o‘tgan mashhur “Loy jangi”dagi hodisalar mana shu tarzda badiiy talqin qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda Baroqxonning jattalar kelganini ko‘rib, Xurosonga qarab qochishi, bir necha yil sarson-sargardon bo‘lib yurishi va To‘qtemurxon taxtni egallab jabr-zulm haddan oshgach, Sohibqironga piri Naqshband *“borib Baroqxonni topib kelturg‘il, mulkni jattadan olib, anga bergil, bularni vaqti hanuz uzoqdur”* [Temurnoma, 1,

111], – deya amr qilishi bilan Amir Temurning safari boshlanadi. Bu safar sarguzashtlari asarning *“Bu dostonda Amir Sohibqiron Balx va Qandahor sarig’a borg’oni, Baroqxonni axtorib yurg’onini bayoni”, “Bu dostonda Amir Temur Sohibqiron Balx shahrig’a borib, amir Choku bila muloqot bo’lg’onini bayoni”, “Bu dostonda Baroqxoning shoh Mansur qo’lida asir bo’lg’onini bayoni”, “Bu dostonda Amir Temur Sohibqiron Sehistong’a borg’oni, atrof din el amirni ko’rmakg’a kelg’onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 111-130] boblarida talqin qilingan. Unda Baroqxonni qidirib yo’lga chiqqan Sohibqiron turli qiyinchiliklar, sinovlar, dushmanlar bilan to’qnashuvlar, homiy-eranlar makonidagi sir-sinoatlarni boshidan kechirib, alal oqibat hamrohlari bilan Baroqxonni topadi va uni Buxoroga olib kelib taxtga o’tqazadi. Shundan so’ng asarda Baroqxon qo’g’irchoq xon sifatida tasvirlanadi. Jahongir Mirzoni bir ayol vajidan qatl qildirgan Baroqxon bu ishi bilan o’z umriga ham xotima yasaydi. Bu asarning *“Bu dostonda Mirzo Jahongir To’ra ibn Amir Temur Balx yurtig’a borib, Baroqxon nomehribon tog’asini qo’lida shahodat topgani. Amir Temur Sohibqiron borib, Baroqxonni o’ldurub, andin keyin Hindistonni musaxxara qilg’onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 154-164] bobida talqin qilingan.

Amir Temur Sohibqiron darajasiga yetishi uchun ma’lum sinovlardan o’tishi lozim edi. Asarda Baroqxon obrazi orqali Amir Temur safarga chiqariladi va bu davr mobaynida turli qiyinchilik va sinovlar asosida sohibqironlik sifatleri shakllantiriladi. Demak, tarixda mo’g’ullar istibdodidan aziyat chekkan xalq o’z ichidan chiqqan xaloskor – Sohibqironni ulug’laydi, dushmanlarni esa u qaysi davrda yashashidan qat’i nazar qoralaydi. Baroqxon obrazi ham asarda mana shunday talqin qilingan.

“Temurnoma”da adolat timsoli bo’lgan ko’plab obrazlar mavjud. Shulardan biri Malham porado’zdir. Mazkur obraz bilan bog’liq voqealar talqini “Temurnoma”ning *“Bu dostonda Amir Sohibqironni Buxoro bormoqi Bayonqulixonni Saroymulk otliq qizini olmoqini bayoni”* [Temurnoma, 1, 72-76] bob (doston)ida keltirilgan. Bu dostonda Amir Temurga otasining yigirmata qo’y berib, bozorga yuborishi voqeasi (bu haqda ko’plab yozma va og’zaki ijodda hikoyalar majud), bu voqeadan jahli chiqqan Tarag’ay Bahodirdan arazlagan Amir Temurning Shayx Kulol qabriga borib, u yerda tunashi, tushida unga shayx Buxoroga borishni aytishi tasvirlanadi. Buxoroda Amir Temur yonidagi la’lini Baroqxonning mahramiga oldirib qo’yadi va undan qaytarib olish uchun Dodox Amir Yodgorshoh, Amir Bayon Sulduz, Buxoro qozisi Imom Sa’dlarga

qilgan murojaatlari besamar ketadi. Amir ahvolini ko'rgan bir qalandar bu muammoni faqat Bobo porado'z hal qilishini aytadi. Asarda Bobo porado'z obrazi quyidagicha tasvirlangan: *“Sohibqiron erta nomozdin keyin minor tagiga bordi. Anda bir do'kon ichra bir oqsoqol kishi eski nimarsalarni tikib o'ltirar, kiyimlari tamom eski turur Amir Temur tamom hayron bo'ldi. Xotirig'a keldikim, bu kishi mani faryodimg'a qanday yetg'ay?!”* [Temurnoma, 1, 72-74]. Amir Temur porado'zga boshidan kechirganlarini so'zlab berganda, u mazkur voqea ishtirokchilarini birin-ketin chaqirib, so'roq qiladi. Muammo yechimi Baroqxonga taqalganda u ham kelib, porado'zga bosh egib uzr so'raydi. Shu tariqa Amir Temurga la'l narxini ikki hissa qilib qaytaradi. Asarda Bobo porado'zning xon ishonchiga kirishi quyidagicha tasvirlangan: kechasi ko'chada begona ayolni ko'rgan bir bek uni zo'rlash uchun uyiga olib kirib ketadi. Bu holat ustidan chiqqan porado'zning bekka kuchi yetmaydi. Yarim kecha bo'lishiga qaramay minoraga chiqib, azon ayta boshlaydi. Xalq hayron bo'ladi, Bayonqulixon ham bemahal aytilgan azon sababini bilish uchun odam yuboradi. Ular zo'ravonni ushlashadi. Bayonqulixon bo'lib o'tgan voqeadan xabar topgach, porado'zga e'tiqod qiladi. Va doimo unga haqiqatni aytishini ta'kidlaydi. Tarixiy manbalarda bu obraz prototipi Hazrat Boboyi Porado'z bo'lib, uning zohid, olim, shayx bo'lganligi, u haqida *“Tuhfat az Zoririn”* kabi asarlarda ma'lumotlar keltirilganligi ma'lum. Boboyi Porado'z 842-yilda tug'ilib, 925-yilda vafot etgan. Uning maqbarasi Buxoro shahrining Sallaxona darvozasi tashqarisida bo'lganligi tadqiqotlarda keltirilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu shaxs Amir Temurdan qariyb to'rt asr avval yashab o'tgan bo'lsa-da, *“Temurnoma”*da adolat himoyachisi sifatida talqin etiladi. Asarda Boyonqulixonning taxtga Shayx ul a'lam tavsiyasi bilan o'tirib, mamlakatni adolat bilan boshqarganligi aytiladi. Xalq dostonlarida odil podshohga *“adolat ko'zgusi”* sifatida tasvirlangan bu tipdagi obrazlar *“Temurnoma”*da ham shu tariqa aks ettiriladi. Shu nuqtai nazardan, asarda tasvirlangan Bobo porado'z obrazi tarixda xalq orasida o'zining adolati, ilmi, zehni bilan mazlumlar himoyachisiga aylangan mashhur shaxslarning tipiklashtirilgan vakili sifatida talqin qilingan.

2. To'qima obrazlar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, *“Temurnoma”*da xalq tasavvurlaridagi Sohibqiron obrazi talqin etilgan folklor asari hisoblanadi. Shu jihatdan asarda Amir Temur xarakterini yoritishda folkloriy talqin olgan tarixiy obrazlar bilan birga to'qima obrazlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, asarda Yo'qun xonim, Sabulak ota, Moydun, Shayx Xasan Kulol,

Sulton Muhammad, Sulton Zunnun, Qutb, Otkin otg'uchi, Mahmud, Judin, Zamonbek, Mukno, Mast bir o'g'il, Dodoxh Amir Yodgorshoh, Imom Sa'd, Siroj Qamariy, Shayx Hasan, Do'nboy bahodir, Ko'rakbiy, Qoratemurxon, Oqtemurxon, Shahr Oroy, Qizil Temurxon, Irinchi, Oqsoqol kishi(Aziz), Shijoat bekach, Shams ul mulk, Jonfur Otaliq, Xo'ja Sa'diddin, Toymug'or qatag'on, Temurtosh qo'ng'irod, Usmon bahodur, Jondariy, Oltmish bahodur, Ertovul bahodir, Mansur, Qoyliq, Sokina Bonu, Mahmuda, Bir Hindu, Kunakdaxat, Hakim Ziyod baxshi, Oq Bo'g'a naymon, Hakim Ziyod baxshi, Turkon tangri izlagan, Davlatshoh O'g'lon, Abu Lays rahmatulloh, Badariy, Hasan Munajjim, Juho narnir Yahudiy, Husayn kurd, Soqibek, Mahmud Asfar, Hasan Juvoriy, Abdurahmon ibn xoja Abdulqodir, Rustambek Bobul, Mehdaab Lo'r, Sa'id Attor, Davlatshayx, Pir qalmoq, Abdulg'affor, Malikai Oqshayx, Zolotous, Kashfutad, Hakim Yag'fur, Pudiy, Chingiziy, Pirovun, Zo'ib, Ag'alibek, Qutulmishbek, Sevarko'z, Tiyyug'bek, Mirsaid Sharif, Qora Usmon, Hasanbek, Zafarbek, Salosiy kazzob, Xalil ota, Xumoriy, Hido kabi sakson ikkita to'qima obrazlar kiritilgan. Ularning ayrimlari asarning u yoki bu o'rnida tilga olingan bo'lsa, aksari Sohibqiron obrazi xarakterini yoritishda ko'makchi obrazlar sanaladi.

“Temurnoma”da Tarag'ay Bahodirning birinchi xotini sifatida tasvirlangan Yo'qun xonim obrazi sohibqironlik tizimini asoslashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu obraz asarda ikki marotaba, birinchisi – *“Avvalgi doston. Hazrat Amir Temur Sohibqironni onalaridin tug'ulmoqlilari bayoni”* bobi (dostoni)ning *“Emdi Amir Temur Sohibqironni onadin tug'ulmoqi voqeasini eshitung”* [1, 47-49] faslida va ikkinchisi – *“Doston: Yetti hakim yetti iqlimdin elchi bo'lib kelur Amir Temur Sohibqiron qatli uchun. Aning bayonida”* bobi(dostoni)ning *“Emdi so'zni Turag'ay bahodirdan eshitmak kerak”* [Temurnoma, 1, 54-56] faslida tasvirlanadi. Yo'qun xonim obrazining asardagi birinchi tasviri uning tush ko'rishi, tush ta'biri natijasida kundoshi – Tegin begimni tug'ilajak farzandi bilan birga yo'q qilish payiga tushishi va buni sodiq quliga buyurishi bilan yakunlanadi. Ikkinchi tasvirda esa uning Tegin begim qarg'ishi tufayli telba bo'lib qolganligi, Tarag'ay Bahodir do'sti Amir Choku xonadonida bir tabibning ovozasini eshitib (Tarag'ay Bahodir uning Tegin begim ekanligini bilmaydi – I.S.), Yo'qun xonimni unga davolatish uchun olib kelishi va o'sha yerda bor haqiqatni bilishi, Yo'qun xonimning Tegin begim duosi bilan sog'ayishi tasvirlari beriladi. Shu bilan asarda Yo'qun xonim obrazining tasviri boshqa uchramaydi. Birinchi tasvirda bu obrazi xalq tasavvuridagi Sohibqironlik tizimida

ahamiyat kasb etuvchi Sohibqiron tug‘ilishiga qarshilik qiluvchi hamda qahramonning o‘z uyida emas, begona yurtda tug‘ilishi, otasidan ma’lum yoshga to‘lguncha ayro yashashiga sabab bo‘lgan raqib obrazi sifatida talqin etilgan. Ikkinchi tasvirda esa uzoq vaqt ayro holda yashagan ota-bolaning topishishiga sababchi bo‘ladi. Demak, Yo‘qun xonim obrazining asar voqealar rivojidagi ishtiroki Sohibqiron hayotiga bilvosita va bevosita ta’siri nuqtai nazaridan ahamiyatli hisoblanadi.

“Temurnoma”da Amir Temur xarakterini yoritishda xizmat qilgan Do’nboy bahodir obrazi ham to‘qima hisoblanadi. U asarda Urganch hokimi Husayn so‘fining o‘g‘li, O‘ljoy turkon (Kamolxonim)ning akasi sifatida talqin qilinadi. Bu tasvirlar jangnomaning *“Bu dostonida Do’nboy bahodur Amir Temur qo‘lda o‘lg‘oni. Ani singlisi axtorib kelg‘onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 82-89] bob (doston)ida keltirilgan. Do’nboy bahodir va Amir Temur o‘rtasidagi munosabat quyidagicha bayon qilinadi: Do’nboy bahodir ov qushi bilan Buxoro atrofida ov qilishni odat qiladi. Uning qushi xalqning moli va joniga ko‘p ozor beradi va Naqshband ko‘rsatmasi bilan Do’nboyini daf qilish uchun Amir Temur shahardan tashqariga chiqadi. Buxoro atrofidagi cho‘lda Amir Temur Do’nboy bahodirni topadi va u bilan jang qiladi. Do’nboyning Amir Temurga kuchi yetmagach, uni g‘irromlik bilan yengayotgan payt G‘ayb eranlari Amir Temurga yordam beradi va Do’nboy o‘ldiriladi. Asarda Do’nboy bahodir bilan bog‘liq epizod mana shu tarzda qisqacha berilgan. Tarixdan bizga ma’lumki, O‘ljoy Turkon og‘a (Kamoloy) Amir Husaynning singlisi, Amir Qozag‘anning qizi bo‘lgan. Yuqorida Baroqxon obrazi xususida fikr yuritib, uning Amir Husayn prototipi ekanligini ta’kidlagan edik. Bu o‘rinda esa O‘ljoy Turkon og‘a obrazi sabab mantiqan Do’nboy bahodir Amir Husayn prototipi bo‘lishi kerak. Lekin asardagi bu obraz talqini, xususan, Urganch hokimining farzandi ekanligi, toj-taxt uchun kurashlarda ishtirok etmasligi, umuman, asardagi vazifasi nuqtai nazardan uning to‘qima ekanligi anglashiladi. Bu obraz orqali o‘zbek xalq ertaklarida yuqori pafosda kuylanadigan to‘g‘rilik va egrilik munosabati badiiy talqin qilinadi. Xususan, Do’nboy bahodir Amir Temurni halol jangda yengolmasligiga ko‘zi yetib, g‘irromlik qila boshlaganida eranlar adolatni tiklaydi. Bu epizod orqali Sohibqironning tanlangan shaxs sifatida doimiy ravishda eranlar himoyasida ekanligi namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, asarda ayrim obrazlar orqali Sohibqironning

xalq orasidagi hurmati, xalqning Amir Temur va uning farzandlariga sadoqati yoritilgan. Xususan, “Temurnoma”ning *“Bu dostonda Mirzo Jahongir To’ra ibn Amir Temur Balx yurtig’a borib, Baroqxon nomehribon tog’asini qo’lida shahodat topgani. Amir Temur Sohibqiron borib, Baroqxonni o’ldurub, andin keyin Hindistonni musaxxara qilg’onini bayoni”* [Temurnoma, 1, 154-564] bob (doston)ida Baroqxon o’z jiyani, Amir Temurning o’g’li Jahongir Mirzoni o’ldirib, boshini darvozaga ildiradi, jasadini qo’rg’on ostiga tashlatadi. Mana shu vaziyatda katta sahnaga Hindu obrazi keladi. Mirzo hayotlik chog’ida unga ko’p yaxshiliklar qilgan bo’lib, mehrini qozongan edi. Hindu Mirzoning o’ligini shahar tashqarisiga olib borib ko’madi. Baroqxon Mirzo jasadini xo’rlash uchun olib kelishni buyurganida Hindu voqeasidan xabar topadi va undan jasadni talab qiladi. Hinduning to’rt o’g’li bo’ladi. Uyga qaytib kelib bir o’g’lini o’ldirib, jasadini olib boradi. Baroqxon odamlari buni ko’rib, Mirzo emasligini aytgach, yana uni qaytarib yuboradi. Hindu shu tariqa birin-ketin to’rt o’g’lini ham o’ldirib, jasadini Baroqxonga olib boradi. Oqibat nima bilan tugashini bilgan Hindu bir do’stiga o’ligimni falon joyga ko’m, deb tayin qiladi. Baroqxon undan Mirzo jasadini ololmagach qiynab o’ldiradi. Hinduning do’sti uni aytgan joyiga dafn qiladi [Temurnoma, 1, 157-158]. Bu obraz orqali xalqning o’z qahramoniga bo’lgan sadoqati ifodalangan. Sulton suyagini xo’rlamas, deganlaridek, xalq Hindu obrazi timsolida Mirzoning jasadi dushmanlar tomonidan xo’rlanmasligi uchun o’z farzandlaridan-da kechishga tayyor ekanligi asarda badiiy talqin qilingan.

“Temurnoma”da folkloriy talqin qilingan ertaknama to’qima obrazlar ham borki, bu asarning sof folklor qonuniyatlar asosida yaratilganligidan dalolat beradi. Xususan, asarning *“Bu dostonda Mironshoh ibn Amir Temur Mansur bila muloqot bo’lg’oni, andin mulki Mozandarong’a borg’onini bayoni”* bobida Nishopurda shahar chekkasidagi bir g’orda ikki yuz yoshli juhud Juho narnir Yahudiyning yashashi, u bir yilda bir marotaba g’ordan chiqib, aholiga kelajak haqidagi bashoratlarini aytib, qaytib g’orga kirib ketishi aytiladi. Mironshoh u bilan savol-javob qilib, mot qiladi. Bashoratchi Shoh Mansurga, bular (temuriylar – I.S.) yer yuziga hukmronlik qiladi. Sening avlodingni halokatga yetkazadi, deb bashorat qiladi va g’orga kirib ketadi [Temurnoma, 1, 174-175]. Bu obraz ham Sohibqiron haqidagi qarashlarni asoslashga xizmat qilgan.

“Temurnoma” jangnoma asar bo’lgani bois unda afsonaviy to’qima jangchi obrazlarining tasviriga ham keng o’rin berilgan. Xususan, asarda To’qtemurxonning xotini Shahr Oroy shu tipdagi

to'qima obraz hisoblanadi. Uning bo'yi yetti gaz bo'lib, jangga kirsa, bir o'zi ming kishini o'ldira olishi, o'n ming kishi ham unga bas kelolmasligi aytiladi. To'qtemurxon Qazag'onning o'ldirilganini eshitib, Buxoroga yurish qiladi va shahar tashqarisida hujumga tayyorgarlik ko'radi. Qadimiy an'analarga muvofiq o'z jangchisi Shahr Oroyni ta'rifu tavsif qilib, uning bir o'zi Buxoroni zabt eta oladi, deb maqtanadi. Amir Temur Shahr Oroy bilan jang qilishni talab qiladi. Ikki o'rtada yakkama-yakka olishuv boshlanadi. Amir Temur Shahr Oroyni boshiga qilich solganida, uning tanasi beligacha ikkiga ayrilib ketadi [Temurnoma, 1, 109]. Bu obraz xalq dostonlari va ertaklarda mavjud afsonaviy obraz tasviriga monand bo'lib, u orqali Amir Temurning jangchilik mahorati, sohibqironlik xususiyatlariga yana bir bor urg'u beriladi.

Yuqorida tahlilga tortilgan obrazlarni asar syujetidagi ishtiroki, badiiy ahamiyati jihatidan quyidagicha tasniflasak, maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) asosiy obrazlar: Amir Temur, Xoja Baho ul Haq vad din (Bahovuddin), Shayx Shams Kulol, Turag'ay (Tarag'ay) bahodir, Tegin begim, Jahongir Mirzo, Mirzo Umar to'ra, Umarshayx Mirzo, Sulton Muhammad to'ra, Mironshoh Mirzo, Mirzo Xalil to'ra, Shayx-ul a'lam (Shayx Sayfiddin), Qilich Arslon.

b) yordamchi obrazlar: Bayonqulixon, Sadr ash shariat, Amir Qazag'on, Amir Choku, Mavlono Burxoniddin Sohib Hidoya, Mirzo Sayfiddin, Amir Muso Bahodur, Xoja Kamol Xo'jandiy, Amir Bayon Sulduz, Saroy Mulk xonim, Husayn so'fi, Kamol oy (O'ljoy Turkon), Amir Hojibek, Qimoriy Inoq, To'xtamishxon, Hind Xoja, Qamariddin, Shoh Mansur, Mavlono Sa'diddin, Muhammad Porso, Yo'qun xonim, Shayx Hasan Kulol, Moydun, Do'nboy bahodir, Mansur, Hido, Qoyliq, Yeldirim Sulton Boyazid.

v) epizodik obrazlar: Shoh shujo', Malik Ra'no Ballulloh, Amir Muayyad orlot, Amir Boyazid Jaloyir, Sangu bobo, Malluxon, Feruzshoh, Amir Husayn so'fi, Amir Husayn, Shoh Yahyo, Bahodurxon, Hasan Juvoriy, Muhammad Porso, Amir Mu'id, Sulton Ahmad, Shayx Ozariy, Sulton Shabli, Ulug'bek Mirzo, Jayon Chashm, Uchqora, Tog'aybug'a, Amir Muso Jaloyir, Amir O'ljoy, Abbos Bahodur, Tuman og'a, Sabulak ota, Sulton Muhammad, Sulton Zunnun, Qutb, Otkin otg'uchi, Mahmud, Judin, Zamonbek, Mukno, Mast bir o'g'il, Dodxoh Amir Yodgorshoh, Imom Sa'd, Siroj Qamariy, Shayx Hasan, Ko'rakbiy, Qoratemurxon, Oqtemurxon, Shahr Oroy, Qizil Temurxon, Irimchi, Oqsoqol kishi (Aziz), Shijoat bekach, Shams ul mulk, Jonfur Otaliq, Xo'ja Sa'diddin, Toymug'or qatag'on, Temurtosh qo'ng'iroq,

Usmon bahodur, Jondariy, Oltmish bahodur, Ertovul bahodir, Sokina Bonu, Mahmuda, Bir Hindu, Kunakdaxat, Hakim Ziyod baxshi, Oq Bo'g'anaymon, Hakim Ziyod baxshi, Turkon tangri izlagan, Davlatshoh O'g'lon, Abu Lays rahmatulloh, Badariy, Hasan Munajjim, Juho narnir Yahudiy, Husayn kurd, Soqibek, Mahmud Asfar, Hasan Juvoriy, Abdurahmon ibn xoja Abdulqodir, Rustambek Bobul, Mehdab Lo'r, Sa'id Attor, Davlatshayx, Pir qalmoq, Abdulg'affor, Malikai Oqshayx, Zolotous, Kashfutat, Hakim Yag'fur, Pudiy, Chingiziy, Pirovun, Zo'ib, Ag'alibek, Qutulmishbek, Sevarko'z, Tiyyug'bek, Mirsaid Sharif, Qora Usmon, Hasanbek, Zafarbek, Salosiy kazzob, Xalil ota, Xumoriy.

Xulosa

Yuqoridagi tasnifda keltirilgan birinchi tipdagi asosiy obrazlar qissada Amir Temur timsoli bilan yonma-yon tasvirlanib, asar syujeti o'zagini tashkil etadi. Ikkinchi tipdagi yordamchi obrazlar asarda Amir Temur shaxsining Sohibqiron sifatida epik talqin qilinishida ko'makchi obraz vazifasini bajaradi. Uchinchi tipdagi epizodik obrazlar esa Sohibqiron timsoli xarakter xususiyatlarining u yoki bu jihatlarini yoritishda katta ahamiyat kasb etgan. Yuqoridagi ayrim obrazlarning asardagi vazifasi nuqtayi nazardan qilingan tahlillarda bu jihatlar keng yoritib berilgan.

Adabiyotlar

- Темурнома: Амир Темур Кўрагон жангномаси. Сўзбоши муаллифи ва луғатлар асосида нашрга тайёрловчи П.Равшанов. Тошкент: Чўлпон, 1990.
- Дадабоев Ҳ. Амир Темур даврдошлари (мўъжаз энциклопедия). Тошкент: "Navoiy universiteti" нашриёти, 2018.
- uz.m.wikipedia.org
- <http://e-tarix.uz/shaxslar/hukmdorlar/355-hukmdorlar.html>
- Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Тошкент: Дурдона нашриёти, 2012. – Б. 292.
- Мадиримова, С. М. (2018). О СЮЖЕТЕ ПОЭМЫ «АШИК ГАРИБ И ШАХСАНАМ». *Редакционная коллегия*, 109.
- Madirimova, S. (2023). "SHOHSANAM VA G 'ARIB" DOSTONI MANBALARI HAQIDA. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(5), 37-42.
- Журакузиев, Н. И. «Model of the world order in the literature and folklore of the ancient Turkic peoples.» *BULLETIN of the L.N. Gumilyov Eurasian National University. Philology Series* 134, no. 1 (2021): 23–36.
- САЙИТҚУЛОВ, И. А. (2019). STYLISTIC AND ARTISTIC FEATURES OF THE WORK TEMUR-NAME. *Иностранные языки в Узбекистане*, (4), 165-173.
- Sayitkulov, I. A. (2019). USAGE OF TERM FOLKLORE BOOKS IN FOLKLORE

Description and evolution of images in “Temurnoma”

Ilhom Sayitqulov¹

Abstract

“Temurnoma” is a work of folklore that interprets the image of Sahibkiran in folklore. In this regard, along with historical images, which are interpreted by folklore, textual images also play an important role in the characterization of Amir Temur. In “Temurnoma” the image of Sahibkiran and various historical and tissue images are used in parallel with the image of Amir Temur, who played an important role in illuminating his character. One hundred and forty-three characters took part in the play. These images unite around the image of Amir Temur and play an important role in illuminating the character of Sahibkiran. In this study, such images described in “Temurnoma” were classified as historical and textual images from a historical point of view.

The depiction of some non-historical fabricated images in the work is the basis for evaluating it as an epic work dedicated to the interpretation of the image of Sahibkiran in the imagination of the people. The depiction of historical figures who were contemporaries of Amir Temur in the war, but did not meet him in real life, is based on the fact that the ideal of the ethnos was accompanied by people close to him. While the main images form the core of the plot, the auxiliary images play a supporting role in the interpretation of the image of Sahibkiran. Episodic images participate as a peripheral element in the system.

The “Temurnoma” also contains folklore-inspired fairy-tale textual images, indicating that the work is based on pure folklore.

Key words: *epos, folk book, legend of a battle-oda, hero, feature art, style, imaginary figure, historical figure.*

¹*Sayitkulov Ilkhom Abdissalamovich* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, dotsent, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: sayitqulovilhom@navoiy-uni.uz; sayitqulov86@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-1475-5757

For citation: Sayitqulov, I. 2023. “Description and evolution of images in “Temurnoma”. *Uzbekistan: Language and Culture. Literature 2* (2): 98-116.

References

- Temurnoma: Amir Temur Ko'ragon jangnomasi. So'zboshi muallifi va lug'atlar asosida nashrga tayyorlovchi P.Ravshanov. Toshkent: Cho'lpon, 1990.
- Dadaboyev H. Amir Temur davrdoshlari (mo'jaz ensiklopediya). Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyoti, 2018.
- uz.m.wikipedia.org
- <http://e-tarix.uz/shaxslar/hukumdorlar/355-hukmdorlar.html>
- Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. Toshkent: Durдона nashriyoti, 2012. – B. 292.
- Мадиримова, С. М. (2018). О СЮЖЕТЕ ПОЭМЫ «АШИК ГАРИБ И ШАХСАНАМ». *Редакционная коллегия*, 109.
- Madirimova, S. (2023). "SHOHSANAM VA G 'ARIB" DOSTONI MANBALARI HAQIDA. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(5), 37-42.
- Журакузиев, Н. И. «Model of the world order in the literature and folklore of the ancient Turkic peoples.» BULLETIN of the L.N. Gumilyov Eurasian National University. Philology Series 134, no. 1 (2021): 23–36.
- САЙИТҚҮЛОВ, И. А. (2019). STYLISTIC AND ARTISTIC FEATURES OF THE WORK TEMUR-NAME. *Иностранные языки в Узбекистане*, (4), 165-173.
- Sayitkulov, I. A. (2019). USAGE OF TERM FOLKLORE BOOKS IN FOLKLORE STUDIES AND DEVELOPMENT OF TEMURNOMA (" LIFE OF TIMUR"). *Theoretical & Applied Science*, (8), 7-10.